**ШАРТНОМА № 3**

**Тошкент ш.** **«15» август 2022 й.**

Бундан буён "ИШ БАЖАРУВЧИ" деб аталувчи "MILKMAN" МЧЖ номидан Устав асосида фаолият олиб борувчи директор **Ж.Б.Уралов** бир томондан ва бундан буён "БУЮРТМАЧИ" деб аталувчи Халқ таълими вазирлиги номидан Устав асосида фаолият олиб борувчи вазир ўринбосари **Т.К.Комилов** бошқа томондан, ушбу шартномани қуйидагилар тўғрисида туздилар.

## 1. ШАРТНОМА ПРЕДМЕТИ

1.1. Ушбу шартномага асосан "Иш бажарувчи" "Буюртмачи"нинг белгилаган санасида мазкур шартноманинг 1-, 2-иловаларида белгиланган менюлар бўйича умумий овқатланиш хизматини қуйидагича амалга оширади, "Буюртмачи" эса кўрсатилган хизматларни қабул қилади ва кўрсатилган хизматлар учун тўловни амалга оширади. *(Харид комиссиясининг 2022 йил 15 августдаги 3-сонли баёнига асосан)*

| Т/р | Кўрсатиладиган хизмат номи | Ўлчов бирл. | Сони | Нархи | Жами суммаси | ҚҚС | | Жами суммаси ҚҚС билан |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | фоиз | сўмда | |
| 1 | Уч маҳал иссиқ овқат билан таъминлаш (10 нафар 15-кун) | Хизмат | 1 | 13 043 478,26 | 13 043 478,26 | 15% | 1 956 521,74 | 15 000 000,00 |
| 2 | Уч маҳал иссиқ овқат билан таъминлаш (130 нафар 2-кун) | Хизмат | 1 | 23 565 217,39 | 23 565 217,39 | 15% | 3 534 782,61 | 27 100 000,00 |
| **ЖАМИ** | | | | | **38 523 913,04** | | **5 778 586,96** | **42 100 000,00** |

1.2. Шартноманинг умумий суммаси ҚҚС билан **42 100 000,00** (Қирқ икки миллион бир юз минг сўм 00 тийин) сўмни ташкил қилади.

## 2. ЕТКАЗИБ БЕРИШ ВА ҲИСОБ-КИТОБЛАР ШАРТЛАРИ

2.1. "Буюртмачи" мазкур шартнома имзоланган кундан бошлаб 15 (ўн беш) банк куни ичида қонунчиликка мувофиқ, шартнома умумий суммасидан 30 фоиз миқдорида (шартнома суммасидан 30 фоиз миқдорида) олдиндан тўлаш мажбуриятини олади, қолган 70 фоизини иш бажарилгандан сўнг 30 (ўттиз) банк куни ичида иш бажариш далолатномаси ва ҳисоб-фактура асосида тўлайди.

2.2. "Иш бажарувчи" аванс маблағлари "Иш бажарувчи"нинг тегишли ҳисобварағига келиб тушган вақтдан бошлаб 1 календарь куни ичида хизматларни амалга оширади.

2.3. Бажарилган ишлар бевосита Буюртмачининг масъул ходимлари томонидан далолатнома бўйича қабул қилинади.

## 3. ТОМОНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

3.1. Буюртмачининг ҳуқуқлари:

Иш бажарувчидан Шартномани бажариш учун зарур бўлган давлат стандартлари ва бошқа меъёрий ҳужжатлар билан таъминлашни талаб қилиш;

Иш бажарувчининг буюртмасига кўра мазкур шартномага мувофиқ, тегишли сифат, ассортимент бўйича хизматларни тўлиқ бажарилишини талаб қилиш;

Иш бажарувчидан мазкур шартнома шартларини бажармаганлиги ёки тегишли даражада бажармаганлиги натижасида етказилган зарарни қоплаб беришни талаб қилиш.

3.2. Буюртмачининг мажбуриятлари:

- товарларнинг қийматини мазкур шартномада белгиланган нархда ва муддатда тўлаш.

3.3. Иш бажарувчи қуйидаги хуқуқларга эга:

- "Буюртмачидан" олдиндан тўлов ва якуний ҳисоб-китобларни Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигида кўзда тутилган тартибда ва ҳажмларда амалга оширишни талаб қилиш;

3.4. Иш бажарувчининг мажбуриятлари:

- Буюртмачига хизматларни мазкур шартномага мувофиқ белгиланган муддатда, миқдорда ва сифатда етказиб бериш;

3.5. Мазкур шартнома белгиланган тартибда мазкур шартнома шартлари ва талаблари ва Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонунчилигига мувофиқ ижро этилиши шарт.

3.6. Томонлар ўз зиммаларига олган барча мажбуриятларнинг ижросини таъминлаган тақдирда шартнома бажарилган ҳисобланади.

## 4. НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ ТАРТИБИ

4.1.Келишмовчиликлар ва баҳслар келиб чиққан тақдирда, томонлар, қоидага кўра, мустақил равишда уларни судгача ҳал этиш чораларини кўрадилар.

4.2. Томонлар келишмовчилик ва баҳсларни ҳал этиш учун бевосита судга мурожаат қилишга ҳақлидир.

4.3. Томонлар судга мурожаат қилган тақдирда, суд иши даъвогар жойлашган манзилдаги иқтисодий судда кўриб чиқилади.

## 5. ФОРС-МАЖОР

5.1. Ушбу шартномага асосан мажбуриятларни бажарилмаслиги ҳолатлари енгиб бўлмайдиган кучлар (форс-мажор) ҳолатлар натижасида вужудга келганда томонлар ўз мажбуриятларини бажармасликдан қисман ёки тўлиқ озод бўладилар.

5.2 Енгиб бўлмайдиган кучлар (форс-мажор) ҳолатларига томонларнинг иродаси ва фаолиятига боғлиқ бўлмаган табиат ҳодисалари (зилзила, кўчки, бўрон, қурғоқчилик ва бошқалар) ёки ижтимоий-иқтисодий ҳолатлар (уруш ҳолати, қамал, давлат манфаатларини кўзлаб импорт ва экспортни тақиқлаш ва бошқалар) сабабли юзага келган шароитларда томонларга қабул қилинган мажбуриятларни бажариш имконини бермайдиган фавқулодда, олдини олиб бўлмайдиган ва кутилмаган ҳолатлар киради.

5.3 Шартнома томонларидан қайси бири учун мажбуриятларни енгиб бўлмайдиган кучлар (форс-мажор) ҳолатлари сабабли бажармаслик маълум бўлса, дарҳол иккинчи томонга бу хақда 10 кун ичида ушбу ҳолатлар ҳаракати сабабини далиллар билан тақдим этиши лозим.

5.4. Шартномага асосан мажбуриятларни ижро қилиш муддати ушбу енгиб бўлмайдиган кучлар (форс-мажор) ҳолатлар давом этиш муддатига қадар узайтирилади. Агар енгиб бўлмайдиган кучлар (форс-мажор) таъсири 60 кундан ортиқроқ давом қилса, томонлар ташаббусига биноан шартнома бекор қилиниши мумкин.

## 6. БОШҚА ШАРТЛАР

6.1. Ушбу шартномада томонларнинг кўзда тутилмаган ўзаро муносабатлари Ўзбекистон Республикаси қонунлари билан тартибга солинади.

## 7. КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ ҚЎШИМЧА ШАРТЛАР

7.1. Тарафлар шартнома тузилган пайтда бевосита ўзи ёки унинг ижроия органлари, мансабдор шахслари ва ходимлари томонидан шартнома билан боғлиқ муносабатлар юзасидан қуйидагиларни кафолатлайдилар:

- қонунга хилоф равишда пул, моддий қийматликлар берилмаганлигини;
- шартнома тузилиши эвазига норасмий пул ёки бошқа моддий қийматликлар олинишига йўл қўйилмаганлигини, таклиф этилмаганлигини, уларни беришга ваъда қилинмаганлигини;
- моддий ёки ҳар қандай турдаги имтиёз олинмаганлигини.

7.2. Тарафлар улар томонидан шартнома доирасида жалб қилинган шахсларнинг (ёрдамчи пудратчи ташкилотлар, агентлар ва тарафлар назорати остидаги бошқа шахсларнинг) юқоридаги ҳаракатларни содир этмаслиги юзасидан оқилона чоралар кўради.

7.3. Тарафлар давлат хизматчилари, сиёсий партиялар, шунингдек ўзининг ижроия органлари, мансабдор шахслари ва ходимлари томонидан ҳар қандай вақт ва шаклда қуйидаги ҳаракатларни бевосита ёки билвосита (шу жумладан, учинчи шахслар орқали) содир этилишига йўл қўймайди:

- назорат қилувчи органлардан лицензия ва рухсатномалар олиш, солиқ солиш, божхона расмийлаштирувини амалга ошириш, судда иш кўрилиши, қонунчилик жараёни ва бошқа соҳаларда қонунга хилоф равишда тижорат ёки бошқа турдаги устунликка эга бўлиш ёки сақлаб қолиш мақсадида юқоридаги шахслар фойдасига ёки улар томонидан моддий ёки номоддий наф олишнинг таклиф этилиши, ваъда қилиниши, берилишига;
- қонунга хилоф равишда олинган даромадларнинг легаллаштирилишига, шунингдек, агар мулк жиноий фаолиятдан олинган даромад эканлиги тарафларга маълум бўлса, уни ўтказиш, мулкка айлантириш ёхуд алмаштириш йўли билан унинг келиб чиқишига қонуний тус бериш, бундай пул маблағлари ёки бошқа мол-мулкнинг асл хусусиятини, манбаини, турган жойини, тасарруф этиш, кўчириш усули, пул маблағларига ёки бошқа мол-мулкка бўлган ҳақиқий эгалик ҳуқуқларини ёки унинг кимга қарашлилигини яширишга;
- коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир қилиш учун тамагирлик қилиш, ундаш, тазйиқ ўтказиш ёки таҳдид қилиш. Ушбу ҳолат бўйича бир тараф иккинчи тарафни ҳамда ваколатли давлат органларини дарҳол хабардор қилиши шарт.

7.4. Тарафлар уларнинг назорати остида бўлган ва улар номидан ҳаракат қиладиган шахслар юқоридаги мажбуриятлар бузилганлиги ҳолатлари ҳақида хабар берилганлиги учун уларга тазйиқ ўтказилмаслигини кафолатлайди.

7.5. Агар бир тарафга бошқа тарафнинг коррупцияга қарши қўшимча шартларга оид белгиланган мажбуриятларни бузилишига йўл қўйганлиги маълум бўлиб қолса, иккинчи тарафни бу ҳақда зудлик билан хабардор қилиши, шунингдек ушбу тарафдан маълум муддат ичида тегишли чоралар кўрилиши ва амалга оширилган ишлар юзасидан уни хабардор этишини талаб қилиши шарт. Тарафнинг бу талаби иккинчи тараф томонидан бажарилмаган тақдирда, ушбу тараф шартномани бир тарафлама тўхтатиб туришга, бекор қилишга ҳамда зарарни тўлиқ қоплаб беришни талаб қилишга ҳақли.

## 8. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ

8.1. Мазкур шартнома имзоланган кундан бошлаб кучга киради ва 2022 йил "31" декабригача амал қилади.

8.2. Шартноманинг амал қилиши бир томоннинг ташаббусига кўра ой (бир) давомида бошқа томонга ёзма ариза топширган кундан бошлаб, барча ўзаро ҳисоб-китоблар тугаганлиги муддатидан аввал тўхтатилиши мумкин. Томонлар ўз зиммаларига олган барча мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлаган ҳолларда шартнома бажарилган ҳисобланади.

8.3. Шартноманинг амал қилиш муддатини тугаши томонларни жавобгарликдан озод қилмайди.

## 9. ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ ВА РЕКВИЗИТЛАРИ

| Иш бажарувчи | Буюртмачи |
|---|---|
| **"MILKMAN" МЧЖ** | Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги<br>Тошкент шаҳар, Шайхонтохур тумани, Навоий кўчаси 2-а-уй<br>Молия вазирлиги Ғазначилиги<br>Ҳ/р: 23 402 000 300 100 001 010<br>ХККМ Марказий банк Бош бошқармаси<br>МФО: 00014 ИНН: 201 122 919<br>ш/хр: 100010860262777096700075004<br>ИНН: 201 122 808 ОКОНХ: 97300 |
| Манзил: Тошкент шаҳар Сергели тумани 3-33-63<br>х/р 20 208 000 505 232 064 001<br>Тошкент ш., "Давр Банк" ХАТ банкининг Яккасарой филиали<br>МФО 01 069, ИНН 307 425 059<br>ҚҚС код: 326070123804 | |
| **Директор ____________ Ж.Б.Уралов** | **Вазир ўринбосари ____________ Т.К.Комилов** |

2021 йил 15 08 даги
3 -сонли шартномага 1-илова

Овқатлантиришни ташкил этиш хизмати бўйича
МЕНЮ

| № | Таомлар номи | Ўлч. бирл. | Миқдори |
|---|---|---|---|
| **1 Кун** | | | |
| **Нонушта** | | | |
| 1 | Сутли, сариёғли манний ёрмали бўтқа | грамм | 300 |
| 2 | Сариёғ (82,5 %) | грамм | 20 |
| 3 | Қайнатилган товуқ тухуми | дона | 1 |
| 4 | Яримдудланган колбаса ва пишлоқ | грамм | 25/20 |
| 5 | Чой (қора, кўк) | мл | 200 |
| 6 | Шакар | грамм | 20 |
| 7 | Нон | грамм | 150 |
| **Тушлик** | | | |
| 1 | 1-овқат; Қайнатма шўрва | грамм | 250 |
| 2 | 2-овқат; Палов | грамм | 300 |
| 3 | Мевалар; Ассорти | грамм | 200 |
| 4 | Салат “Ачиқ-чучук” | грамм | 100 |
| 5 | Мева шарбати | мл | 200 |
| 6 | Нон | грамм | 150 |
| 7 | Чой (қора, кўк) | мл | 200 |
| **Кечки овқат** | | | |
| 1 | Овқат; Димлама | грамм | 300 |
| 2 | Сариёғ (82,5 %) | грамм | 20 |
| 3 | Салат: Янги узилган бодринг | грамм | 70 |
| 4 | Пишлоқли пицца | грамм | 60 |
| 5 | Компот | мл | 200 |
| 6 | Нон | грамм | 150 |

Халқ таълими вазири
ўринбосари _________________ Т.К.Комилов

“MILKMAN” МЧЖ
директори _________________ Ж.Б.Уралов

2021 йил 15 08 даги
3 -сонли шартномага 2-илова

Овқатлантиришни ташкил этиш хизмати бўйича
МЕНЮ

| № | Таомлар номи | Ўлч. бирл. | Миқдори |
|---|---|---|---|
| **1 Кун** | | | |
| **Нонушта** | | | |
| 1 | Сутли, сариёғли манний ёрмали бўтқа | грамм | 300 |
| 2 | Сариёғ (82,5 %) | грамм | 20 |
| 3 | Қайнатилган товуқ тухуми | дона | 1 |
| 4 | Яримдудланган колбаса ва пишлоқ | грамм | 25/20 |
| 5 | Чой (қора, кўк) | мл | 200 |
| 6 | Шакар | грамм | 20 |
| 7 | Нон | грамм | 150 |
| **Тушлик** | | | |
| 1 | 1-овқат; Қайнатма шўрва | грамм | 250 |
| 2 | 2-овқат; Палов | грамм | 300 |
| 3 | Мевалар; Ассорти | грамм | 200 |
| 4 | Салат "Ачиқ-чучук" | грамм | 100 |
| 5 | Мева шарбати | мл | 200 |
| 6 | Нон | грамм | 150 |
| 7 | Чой (қора, кўк) | мл | 200 |
| **Кечки овқат** | | | |
| 1 | Овқат; Димлама | грамм | 300 |
| 2 | Сариёғ (82,5 %) | грамм | 20 |
| 3 | Салат: Янги узилган бодринг | грамм | 70 |
| 4 | Пишлоқли пицца | грамм | 60 |
| 5 | Компот | мл | 200 |
| 6 | Нон | грамм | 150 |
| **2 Кун** | | | |
| **Нонушта** | | | |
| 1 | Сутли, сариёғли гуручли бўтқа | грамм | 300 |
| 2 | Сариёғ (82,5 %) | грамм | 20 |
| 3 | Қайнатилган товуқ тухуми | дона | 1 |
| 4 | Яримдудланган колбаса ва пишлоқ | грамм | 25/20 |
| 5 | Чой (қора, кўк) | мл | 200 |
| 6 | Нон | грамм | 150 |
| 7 | Шакар | грамм | 20 |
| **Тушлик** | | | |
| 1 | 1-овқат; Борш | грамм | 250 |
| 2 | 1-овқат; Қозон кабоб | грамм | 300 |
| 3 | Мевалар; Олма | грамм | 200 |
| 4 | Салат: Янги узилган бодринг | грамм | 70 |
| 5 | Кефир | мл | 200 |
| 6 | Нон | грамм | 150 |
| 7 | Чой (қора, кўк) | мл | 200 |

| Кечки овқат | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Овқат; Мошкичири | грамм | 300 |
| 2 | Сариёғ (82,5 %) | грамм | 20 |
| 3 | Карамли салат | грамм | 70 |
| 4 | Сарделька | грамм | 60 |
| 5 | Компот | мл | 200 |
| 6 | Нон | грамм | 150 |

Халқ таълими вазири ўринбосари ________________ Т.К.Комилов

"MILKMAN" МЧЖ директори ________________ Ж.Б.Уралов

3279161

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"MILKMAN" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MILKMAN" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

01.06.2020 853398 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 307425059

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Toshkent shahri, Sirg`ali tumani, Sergeli-3 mavze, 33-uy, 63-xonadon,

Guvohnoma: Toshkent shahri, Sirg`ali tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi).

# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 128409 на приобретение Вазирлик томонидан ўтказилаётган марказлашган тадбир иштрокчилари учун овқатлантириш хизматини кўрсатиш

Способ проведения электронный

Дата 10.08.2022

Время рассмотрения 08.08.2022 16:06

Конкурсная комиссия Министерство Народного образования РУз, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | KOMILOV TEMURJON KALANDAROVICH | Вазир ўринбосари | Халқ таълими вазирлиги |
| **Секретарь комиссии** | MANNONOV JASUR IBODULLA O'G'LI | Бош мутахассис | Халқ таълими вазирлиги |
| **Член комиссии** | SALIYEV LAZIZ ALIYEVICH | Коррупцияга қарши курашиш комплаенс назоратини амалга ошириш шўбаси мудири | Халқ таълими вазирлиги |
| **Член комиссии** | MIRAXMEDOV MIRZOXID ULMAS O'G'LI | Юридик бўлим бошлиғи | Халқ таълими вазирлиги |
| **Член комиссии** | SIRADJEV ILXOM TOXIROVICH | Молия департаменти директори | Халқ таълими вазирлиги |
| **Член комиссии** | KARABAYEV MURODJON ABDURAXMANOVICH | Мактабдан ташқари таълим, спорт ва туризмни ташил этиш бошқарма бошлиғи | Халқ таълими вазирлиги |
| **Член комиссии** | YESHNAZAROV SHAXBOZ ASANBAYEVICH | Давлат харидлари бўлими бошлиғи | Халқ таълими вазирлиги |
| **Член комиссии** | XUDAYKULOV JOXANGIR ISKANDAROVICH | Ижро этувчи аппарати бошлиғи ўринбосари | Халқ таълими вазирлиги |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 10.08.2022 года № лота 128409.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги по организации горячего питания** |
|---|---|
| Подробное описание | Услуги по организации горячего питания |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 16 500 000.00 |
| Стартовая сумма | 16 500 000.00 |
| Валюта | UZS |

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги по организации горячего питания** |
|---|---|
| Подробное описание | Услуги по организации горячего питания |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 28 600 000.00 |
| Стартовая сумма | 28 600 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Наличие требуемого опыта, квалификации и стажа работы у сотрудников (поворов) Участника. Наличие опыта проведении аналогичных услуг

Тип: Текстовое значение

Описание: Наличие требуемого опыта, квалификации и стажа работы у сотрудников (поворов) Участника. Наличие опыта проведении аналогичных услуг

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО MILKMAN** | 10 | Текстовое значение | 10 | Экспертная | | |
| **ООО MAXXX BROTHERS** | 10 | Текстовое значение | 10 | Экспертная | | |

Критерий №2 - сравнительная таблица технических характеристик на предлагаемый товар (работы, услуги) в соответствии с формой №6, прилагаемой к данной инструкции;

Тип: Текстовое значение

Описание: - сравнительная таблица технических характеристик на предлагаемый товар (работы, услуги) в соответствии с формой №6, прилагаемой к данной инструкции;

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО MILKMAN** | 10 | Текстовое значение | 10 | Экспертная | | |
| **ООО MAXXX BROTHERS** | 10 | Текстовое значение | 10 | Экспертная | | |

Критерий №3 - все требуемые документы (в технической документации таблице №1) оформляемых участниками для участия в электронном отборе

Тип: Текстовое значение

Описание: - все требуемые документы (в технической документации таблице №1) оформляемых участниками для участия в электронном отборе

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО MILKMAN** | 20 | Текстовое значение | 20 | Экспертная | | |
| **ООО MAXXX BROTHERS** | 20 | Текстовое значение | 20 | Экспертная | | |

Критерий №4 Информация о наличие необходимых технических, финансовых, материальных, трудовых и других ресурсов для исполнения договора

Тип: Текстовое значение

Описание: Информация о наличие необходимых технических, финансовых, материальных, трудовых и других ресурсов для исполнения договора

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО MILKMAN** | 10 | Текстовое значение | 10 | Экспертная | | |
| **ООО MAXXX BROTHERS** | 10 | Текстовое значение | 10 | Экспертная | | |

Критерий №5 Информация о профессиональном уровне поваров. (диплом разряд сертификат и.т.д.)

Тип: Текстовое значение

Описание: Информация о профессиональном уровне поваров. (диплом разряд сертификат и.т.д.)

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО MILKMAN** | 20 | Текстовое значение | 20 | Экспертная | | |
| **ООО MAXXX BROTHERS** | 20 | Текстовое значение | 20 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО MAXXX BROTHERS** | 45 100 000.00 | 43 100 000.00 UZS | 43 100 000.00 | 00.00 | 43 100 000.00 | 05.08.2022 12:47:45 | 29.30 |
| **ООО MILKMAN** | 45 100 000.00 | 42 100 000.00 UZS | 42 100 000.00 | 00.00 | 42 100 000.00 | 05.08.2022 12:08:18 | 30.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ООО MAXXX BROTHERS** | 70 | 29.3 | 99.3 |
| **ООО MILKMAN** | 70 | 30 | 100 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 128409 от 10.08.2022 года на приобретение Вазирлик томонидан ўтказилаётган марказлашган тадбир иштрокчилари учун овқатлантириш хизматини кўрсатиш определила победителем:

ООО MILKMAN
307425059

и резервный исполнитель: ООО MAXXX BROTHERS (304984427)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | KOMILOV TEMURJON KALANDAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | SALIYEV LAZIZ ALIYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MIRAXMEDOV MIRZOXID ULMAS O'G'LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | SIRADJEV ILXOM TOXIROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | KARABAYEV MURODJON ABDURAXMANOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | XUDAYKULOV JOXANGIR ISKANDAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | YESHNAZAROV SHAXBOZ ASANBAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

203

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

## "Ilm - saodat kaliti" shiori ostida "Qizlarjon" anjumanini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida

"O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda yoshlar bilan manzilli ishlash tizimini yaratish, ularni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish (5 muhim tashabbus) bo'yicha hamkorlik dasturi"ning 87-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2022-yil 17-19-avgust kunlari "Ilm - saodat kaliti" shiori ostida "Qizlarjon" anjumani (keyingi o'rinlarda - anjuman) Toshkent shahrida yuqori saviyada tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

anjumanni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

anjuman dasturi 2-ilovaga muvofiq;

anjuman ishtirokchilarining taqsimoti 3-ilovaga muvofiq;

anjumanni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar smetasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

anjuman ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, har bir hudud xotin-qizlari o'rtasida uchrayotgan muammo va takliflarni o'rganib, ularning yechimi bo'yicha tayyorlangan taqdimotlarni joriy yilning 25-iyul kuniga qadar Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va ijodkor o'quvchilar bilan ishlash bo'limiga taqdim etsin;

respublika anjumani ishtirokchilarini hududiy boshqarmalardan biriktirilgan mas'ul xodim boshchiligida xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda 2022-yil 17-avgust kuni Toshkent shahriga yetib kelish choralarini ko'rsin.

4. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va ijodkor o'quvchilar bilan ishlash bo'limi (U.Xaydarov)ga:

anjuman doirasida mahorat darslari va treninglar, sayohatlar uyushtirish va yurtimizdagi taniqli tadbirkor ayollari bilan uchrashuvlar tashkil etish choralarini ko'rsin;

tadbir o'tgandan so'ng 5 kun muddatda tadbir yakunlari yuzasidan hisobotlarni (tovar-moddiy boyliklarini tarqatish qaydnomalari ilova qilingan holda) Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Anjumanni o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2021-yil 27-dekabrdagi 421-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2022-yilda o'tkaziladigan markazlashgan tadbirlar rejasi"da nazarda tutilgan tegishli mablag'lar doirasida amalga oshirilsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (J.Shokirov) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'rnatilgan tartibda to'lovlarni amalga oshirish choralarini ko'rsin.

7. Davlat xaridlari bo'limi (Sh.Yeshnazarov) sarf-xarajatlar smetasiga asosan xaridlarni belgilangan tartibda amalga oshirsin.

8. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (L.Rustamova) anjumanni ommaviy axborot vositalarida keng yoritsin.

9. Devonxona (D.Isxakova) mazkur buyruqni 1 kun muddatda hududiy xalq ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

10. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari V.Rajapov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **B.Saidov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Toshkent sh.,
2022-yil "24" iyun,
203-son

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2022-yil “24”-iyundagi
203- son buyrug‘iga
1-ILOVA

**“Ilm - saodat kaliti” shiori ostida “Qizlarjon” anjumanini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita**
**TARKIBI**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | V.Rajapov | – | O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri o‘rinbosari, tashkiliy qo‘mita raisi |
| **2.** | N.Mamaraimova | – | O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri maslahatchisi, a’zo |
| **3.** | D.Fozilov | – | Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo |
| **4.** | U.Xaydarov | – | Ma’navi-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish va ijodkor o‘quvchilar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, a’zo |
| **5.** | L.Rustamova | – | Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i, a’zo |
| **6.** | D.Xatamova | – | Ijro etuvchi apparat bosh mutaxassisi, Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi boshlang‘ich tashkiloti raisi, a’zo |
| **7.** | K.Ismoilova | – | Ma’navi-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish va ijodkor o‘quvchilar bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi, a’zo |

O‘zbekiston Respublikasi
xalq ta’limi vazirining
2022-yil “24”-iyundagi
203- son buyrug‘iga
2-ILOVA

**“Ilm – saodat kaliti” shiori ostida “Qizlarjon” anjumani**
**DASTURI**

**O‘tkazish sanasi:** 2022-yil 17-19-avgust

**O‘tkazish joyi:** Toshkent shahar

**Ishtirokchilar:** Xalqaro va respublika fan olimpiadalari g‘oliblari, hunarmandlik bilan shug‘ullanayotgan o‘quvchi-qizlar, innovatsion g‘oyalar muallifi bo‘lgan o‘quvchi-qizlar, IT sohasi bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchi-qizlar, fanlarni a’lo baholarga o‘zlashtirgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, yoshlar ittifoqining hududiy sardorlari va profilaktik hisobdagi o‘quvchi-qizlar (tarbiyasi yaxshilanayotgan) jami **130 nafar**

| **DASTUR** | |
|---|---|
| **17-avgsut 2022-yil 1-kun** | |
| **..... -14.$^{00}$** | Ishtirokchilarni Toshkent shahrida kutib olish |
| **15.$^{00}$-16.$^{00}$** | Ishtirokchilarni yotoqxonalarga joylashtirish va tarqatmalar tarqatish |
| **16.$^{00}$-16.$^{30}$** | Kofe-breyk |
| **16.$^{30}$-17.$^{00}$** | Transfer |
| **17.$^{00}$-18.$^{30}$** | Madaniy tadbir vaqti: O‘zbek milliy akademik drama teatrida **“Iymon”** spektakl namoyishi |
| **18.$^{30}$-19.$^{00}$** | Transfer |
| **19.$^{00}$-19.$^{30}$** | Simfonik orkestr konsert dasturi |
| **19.$^{30}$-20.$^{00}$** | Anjumanning tantanali ochilish marosimi: Tashkent sity **Open Air**<br>**V.Rajapov** Xalq ta’limi vaziri o‘rinbosari<br>**M.Kadirxanova** Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi raisi |
| **20.$^{00}$-21.$^{00}$** | Kechki ovqat |
| **21.$^{00}$-22$^{00}$** | Toshkent bo‘ylab sayohat (routemaster bus): **Yangi O‘zbekiston bog‘i** |
| **22.$^{00}$-22$^{30}$** | Transfer |
| **22.$^{30}$-....** | Tungi uyqu |
| **18-avgust 2022-yil 2-kun** | |
| **08.$^{00}$-08.$^{30}$** | Nonushta (yotoqxona oshxonasi) |
| **08.$^{30}$-09.$^{00}$** | Transfer |
| **09.$^{00}$-11.$^{30}$** | Zamonaviy kasblar: Mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish va ularning turlari (sayohat): **Hilton, Hyatt regency** |
| | Zamonaviy kasblar: Toshkent xalqaro aeroporti: **Styuardessalar** faoliyati bilan tanishish (sayohat) |

| | |
|---|---|
| | Kelajak kasblari: **IT va frilanserlik**: Toshkent IT parki (sayohat) |
| | Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti: Shaxs protokoli mavzusida mahorat darsi |
| $12.^{00}-13.^{00}$ | **Akfa** universitetiga tashrif |
| $13.^{00}-14.^{00}$ | Tushlik |
| $14.^{00}-16.^{00}$ | O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati binosiga tashrif – **"Mahalliy muammolarni hal etishda xotin-qizlar ishtiroki"** mavzusida muzokara stoli (loyihalar taqdimoti) |
| $16.^{00}-17.^{00}$ | Biznes vaqti: **Umida Rahmonova** – "Miss Lighting" (qandillar) savdo kompaniyasi (sayohat) |
| | "Mening yurtim" telekanalida anjuman yuzasidan ko'rsatuvda ishtirok etish |
| $17.^{00}-18.^{00}$ | Motivatsion uchrashuv:<br>1. **Nargiza Arslonova** – Kran boshqaradigan o'zbek qizi<br>2. **Aziza Umarova** – "Smart Gov Consulting" kompaniyasi rahbari<br>3. **Feruza Shodmonova** – "Milady" to'y liboslar saloni rahbari |
| $18.^{00}-18.^{30}$ | Transfer |
| $18.^{30}-19.^{00}$ | Alisher Navoiy kinoteatrida "101 reys" film namoyishi |
| $19.^{00}-20.^{00}$ | Kechki ovqat |
| $20.^{00}-21.^{30}$ | Anjumanning tantanali yopilish marosimi va gala-konsert: Tashkent sity **Open Air**<br>**B.Saidov** Xalq ta'limi vaziri<br>**Z.Mahkamova** Bosh vazir o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi |
| $22.^{00}$- | Tungi uyqu |
| **19-avgust 2022-yil 3-kun** | |
| $08.^{00}-09.^{00}$ | Nonushta (yotoqxona oshxonasi) |
| $09.^{00}$- | Ishtirokchilarni kuzatish. |

O'zbekiston Respublikasi
xalq ta'limi vazirining
2022-yil "24"-iyundagi
203 - son buyrug'iga
3-ILOVA

## "Ilm – saodat kaliti" shiori ostida "Qizlarjon" anjumani ishtirokchilarining TAQSIMOTI

| T/r | Hududlar nomi | Tumanlar soni | Ishtirokchilar soni | Mas'ul |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 17 | 8 | 1 |
| **2.** | Andijon viloyati | 16 | 8 | 1 |
| **3.** | Buxoro viloyati | 13 | 5 | 1 |
| **4.** | Jizzax viloyati | 13 | 5 | 1 |
| **5.** | Qashqadaryo viloyati | 15 | 8 | 1 |
| **6.** | Navoiy viloyati | 11 | 5 | 1 |
| **7.** | Namangan viloyati | 14 | 7 | 1 |
| **8.** | Samarqand viloyati | 16 | 7 | 1 |
| **9.** | Sirdaryo viloyati | 12 | 5 | 1 |
| **10.** | Surxondaryo viloyati | 15 | 8 | 1 |
| **11.** | Toshkent viloyati | 22 | 10 | 1 |
| **12.** | Farg'ona viloyati | 19 | 10 | 1 |
| **13.** | Xorazm viloyati | 13 | 7 | 1 |
| **14.** | Toshkent shahar | 12 | 7 | 1 |
| | **Jami** | **208** | **100** | **14** |

O'zbekiston Respublikasi
xalq ta'limi vazirining
2022-yil "24"-iyundagi
203 - son buyrug'iga
4-ILOVA

**"Ilm - saodat kaliti" shiori ostida "Qizlarjon" anjumanini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar**
**SMETASI**

| T/r | Xarajat nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi | Umumiy summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Ishtirokchilar uchun ovqatlanish xarajatlari *(2 kun uchun)* | kun | 130 | 110 000 | 28 600 000 |
| 2. | Tashkent City parkida sahna ijarasi (LED ekran, rangli chiroqlar, elektroenergiya, konfetlar ovoz kuchaytiruvchi jihozlar) | kun | 2 | 40 135 000 | 80 270 000 |
| 3. | Loyiha yakuni bo'yicha fotoalbom | dona | 3 | 1 200 000 | 3 600 000 |
| 4. | Futbolka polo *(loyiha logosi tushirilgan)* | dona | 160 | 60 000 | 9 600 000 |
| 5. | Kepka *(loyiha logosi tushirilgan)* | dona | 160 | 25 000 | 4 000 000 |
| 6. | Eko sumka *(loyiha logosi tushirilgan o'lchami 38x42)* | dona | 160 | 25 000 | 4 000 000 |
| 7. | Bloknot kojali *(loyiha logosi tushirilgan)* | dona | 160 | 60 000 | 9 600 000 |
| 8. | Ruchka *(loyiha logosi tushirilgan)* | dona | 160 | 15 000 | 2 400 000 |
| 9. | Banner *(reykali, o'rnatish xarajatlari bilan)* | kv | 50 | 100 000 | 5 000 000 |
| 10. | A4 ramka *(ishtirokchilar uchun)* | dona | 50 | 20 000 | 1 000 000 |
| 11. | A3 ramka *(hamkor tashkilotlar va spikerlar uchun)* | dona | 20 | 30 000 | 600 000 |
| 12. | Avtobus xarajatlari (*2 kun uchun routemaster bus)* | xizmat | 3 | 2 500 000 | 15 000 000 |
| | **Jami:** | | | | **163 670 000** |

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

**Xalqaro iqtisod olimpiadasi (IEO)da O‘zbekiston terma jamoasi ishtirokini ta’minlash hamda xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik doirasida kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini namoyon etishiga ko‘maklashish va nufuzli xalqaro fan olimpiadalariga puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadida **buyuraman:**

1. Xalqaro iqtisod olimpiadasi (IEO) joriy yilning **26-iyul - 1-avgust** kunlari Xitoy davlati tashkilotchiligida masofaviy (onlayn) shaklda o‘tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Xalqaro iqtisod olimpiadasi (IEO)da ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari va rahbarlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Xalqaro iqtisod olimpiadasi (IEO)ga tayyorgarlik doirasida o‘tkaziladigan kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etadigan o‘quvchilar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro iqtisod olimpiadasi (IEO)da O‘zbekiston terma jamoasi ishtirokini ta’minlash hamda xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik doirasida kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq saraf-xarajatlar smetasi 3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (A.Radjiyev) hududlardan keladigan ishtirokchilar va ularga biriktirilgan kuzatuvchilarni hamda yakuniy saralashda yuqori ball olib, zaxiraga kiritilgan 4 nafar nomzodlarni yotoqxona bilan ta’minlash, yotoqxonada sanitariya-gigiyena qoidalari va texnika xavfsizligiga qat’iy amal qilish choralarini ko‘rsin.

4. Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi boshlig‘i (Ya.Sultonov)ga:

2-ilovadagi o‘quvchilarni joriy yilning 18-iyuldan 25-iyulga qadar o‘quv mashg‘ulotlari olib boriladigan Cambridge axborot texnologiyalari va iqtisodiyot maktabiga kelib-ketishlarida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

Olmazor tumanidagi 191-sonli umumta’lim maktabida joriy yilning 26-iyul - 1-avgust kunlari xalqaro olimpiada o‘tkaziladigan auditoriyalarni to‘liq texnik ta’minlanishi hamda kompyuter qurilmalarini butunjahon internet tarmog‘iga ulanishini sifatli tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va Navoiy, Buxoro, Samarqand, Andijon, Farg‘ona viloyatlari xalq ta’limi boshqarmalari boshliqlari terma jamoa tarkibiga kiritilgan o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlagan holda, kuzatuvchi rahbarligida Toshkent shahriga belgilangan muddatlarda kelib-ketishlari hamda kuzatuvchilarning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlari xodimning asosiy ish joyidan to‘lanishi ta’minlansin.

6. Xalqaro olimpiadada ishtirok etish hamda xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik doirasida kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar Xalqaro iqtisod olimpiadasi onlayn o‘tkazilayotganligi munosobati bilan ushbu olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 27-dekabrdagi 421-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2022-yilda o‘tkaziladigan markazlashgan tadbirlar rejasi”da nazarda tutilgan Xalqaro iqtisod olimpiadasida ishtirok etish uchun ajratilgan mablag‘larning foydalanilmagan qismi doirasida amalga oshirilsin.

7. Davlat xaridlari bo‘limi (Sh.Yeshnazarov) xalqaro olimpiadada ishtirok etish hamda xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik doirasida kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq xaridlarni sarf-xarajatlar smetasiga asosan amalga oshirsin.

8. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig‘i (J.Shokirov):

xalqaro olimpiadada ishtirok etish hamda xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik doirasida kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni vazirlikning 2022-yil uchun tasdiqlangan markazlashgan tadbirlar mablag‘lari hisobidan, tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda amalga oshirsin;

g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar hamda ularning ustozlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorida belgilangan bir martalik pul mukofotlari bilan rag‘batlantirsin.

9. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova) xalqaro olimpiada jarayonlarini va taqdirlash marosimini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **B.Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil “15” - iyul
228 -son

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2022-yil “15” - iyuldagi
228 - sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

**Xalqaro iqtisod olimpiadasida (IEO) ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari va rahbarlari**
**RO‘YXATI**

| T/r | O‘quvchilarning familiyasi, ismi, sharifi | Hudud | Tug‘ilgan sanasi | Ta’lim muassasasi | Sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Kurbanov Ali Sanat o‘g‘li | Toshkent shahar | 18.06.2007 | Cambridge axborot texnologiya va iqtisodiyot maktabi | 8-sinf |
| 2 | Muxtoroxonov Muxammadxon Muzrobxon o‘g‘li | Toshkent shahar | 01.06.2007 | Cambridge axborot texnologiya va iqtisodiyot maktabi | 9-sinf |
| 3 | Abdumo‘minov Jaloliddin Jahongir o‘g‘li | Farg‘ona viloyati | 28.09.2006 | Prezident maktabi | 9-sinf |
| 4 | Abdullajonov Azizbek Doniyorbek o‘g‘li | Andijon viloyati | 02.10.2006 | Prezident maktabi | 9-sinf |
| 5 | Olimov Abbos Alijon o‘g‘li | Buxoro viloyati | 11.02.2006 | 9-IDUM | 9 sinf |
| 6 | Shoumarov Alisher Ozodovich | Toshkent shahar | Terma jamoa rahbari | Cambridge axborot texnologiya va iqtisodiyot maktabi direktori | |
| 7 | Xasanov Aziz Shuxratovich | Toshkent shahar | Terma jamoa rahbari | Fan olimpiadalari bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash departamenti, bo‘limi boshlig‘i | |

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirining
2022 yil "15" iyuldagi
228 - sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

**Xalqaro iqtisod olimpiadasida ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoa a'zolari va zaxiraga kiritilgan nomzodlar uchun kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarda ishtirok etuvchi o‘quvchilar**
**RO‘YXATI**

| T/r | O‘quvchilarning familiyasi, ismi, sharifi | Hudud | Tuman, shahar | Maktabi | Sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Kurbanov Ali Sanat o‘g‘li | Toshkent shahar | M.Ulug‘bek | Cambridge axborot texnologiya va iqtisodiyot maktabi | 8-sinf |
| 2 | Muxtoroxonov Muxammadxon Muzrobxon o‘g‘li | Toshkent shahar | M.Ulug‘bek | Cambridge axborot texnologiya va iqtisodiyot maktabi | 9-sinf |
| 3 | Abdumo'minov Jaloliddin Jahongir o‘g‘li | Farg‘ona viloyati | Farg‘ona shahar | Prezident maktabi | 9-sinf |
| 4 | Abdullajonov Azizbek Doniyorbek o‘g‘li | Andijon viloyati | Andijon shahar | Prezident maktabi | 9-sinf |
| 5 | Olimov Abbos Alijon o‘g‘li | Buxoro viloyati | Peshku tumani | 9-IDUM | 9 sinf |
| 6 | Allaxov Sharyar Bayrambay o‘g‘li | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | Nukus shahar | Prezident maktabi | 8-sinf |
| 7 | Xayrullayev Orifjon Jamolliddin o‘g‘li | Samarqand viloyati | Oqdaryo tumani | 52-IDUMI | 9-sinf |
| 8 | Pardayev Bahodir Komiljonovich | Navoiy viloyati | Zarafshon shahar | 3-maktab | 9-sinf |
| 9 | Mirxaydarov Mirshoxid Muzaffar o‘g‘li | Toshkent shahar | M.Ulug‘bek | Cambridge axborot texnologiya va iqtisodiyot maktabi | 9-sinf |

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirining
2022-yil "15" - iyuldagi
228 -son buyrug‘iga
3-ILOVA

**Xalqaro iqtisod olimpiadasi (IEO)da O‘zbekiston terma jamoasi ishtirokini ta'minlash hamda xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik doirasida kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar SMETASI**

| T/r | Nomi | O‘lchov birligi | Soni | Kun | Narxi | Umumiy summa |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Ishtirokchilarni ovqatlantirish | nafar | 10 | 15 | 110 000 | 16 500 000 |
| 2. | A4 formatdagi qog‘oz | pachka | 5 | - | 50 000 | 250 000 |
| 3. | Suv (0,5 l) | dona | 170 | - | 1 500 | 255 000 |
| 4. | Jami: | | | | | **17 005 000** |

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**
**Харид комиссияси раиси**
_______________ **Т. К. Комилов**
“15” август 2022 йил

**Тадбир иштирокчилари учун иссиқ овқат ташкил қилиш хизмати харидини амалга ошириш ишларини ташкил қилиш юзасидан**
**Харид комиссиясининг 3-сонли мажлис**
**БАЁНИ**

Тошкент шаҳри "15" август 2022 йил

**Қатнашдилар:**

| | | |
|---|---|---|
| Т. Комилов | – | Харид комиссияси раиси, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазири ўринбосари |
| М. Мирахмедов | – | Юридик бўлим бошлиғи – аъзо |
| И. Сираджев | – | Молия департаменти директори – аъзо |
| М. Карабаев | – | Мактабдан ташқари таълим, спорт ва туризмни ташкил этиш бошқармаси бошлиғи – аъзо |
| Ш. Ешназаров | – | Харид комиссияси раиси ўринбосари, Давлат харидлари бўлими бошлиғи – аъзо |
| Ж. Худойқулов | – | Ижро аппарати бошлиғи ўринбосари – аъзо |
| Л. Салиев | – | Коррупцияга қарши курашиш комплаенс назоратини амалга ошириш шўбаси мудири – аъзо |
| Ж. Маннонов | – | Харид комиссияси котиби (овоз бериш ҳуқуқига эга эмас) |

**КУН ТАРТИБИ**

**Тадбир иштирокчилари учун иссиқ овқат ташкил қилиш хизмати харидини амалга ошириш ишларини ташкил қилиш тўғрисида.**

Вазирлик томонидан 2022 йил 29 июлда Ўзбекистон Республикаси товар ва хомашё биржасининг электрон порталига Тадбир иштирокчилари учун иссиқ овқат ташкил қилиш хизмати харид қилиш бўйича лот № 22110012128409 рақами билан эълон жойлаштирилди. Мазкур лот бўйича 2022 йил 10 августдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган Тадбир иштирокчилари учун иссиқ овқат ташкил қилиш хизмати харид қилиш бўйича баённомасининг эълон якунига кўра Комиссия аъзолари томонидан “MILKMAN” масъулияти чекланган жамияти ғолиб деб

топилганлиги сабабли, Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси, 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлигини инобатга олиб:

**ҚАРОР ҚИЛИНДИ:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси, 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига мухокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича хеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Халқ таълими вазирлиги бош ҳисобчиси (Ж.Шокиров)га:

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 10 августдаги электрон баённомасига асосан ғолиб “MILKMAN” масъулияти чекланган жамияти билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

3. Фан олимпиадалари бўйича иқтидорли ўқувчилар билан ишлаш департаменти директори (У.Рахмонов), Маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этиш ва ижодкор ўқувчилар билан ишлаш бўлими бошлиғи (У.Хайдаров)ларга хизмат кўрсатиш сифат даражасини назорат қилсин.

**Харид комиссияси котиби** **Ж.Маннонов**

**Комиссия аъзолари**

М. Мирахмедов — Юридик бўлим бошлиғи

И. Сираджев — Молия департаменти директори

М. Карабаев — Мактабдан ташқари таълим, спорт ва туризмни ташкил этиш бошқармаси бошлиғи

Ш. Ешназаров — Харид комиссияси раиси ўринбосари, Давлат харидлари бўлими бошлиғи

Ж. Худойқулов — Ижро аппарати бошлиғи ўринбосари

Л. Салиев — Коррупцияга қарши курашиш комплаенс назоратини амалга ошириш шўбаси мудири